



GULISTAN
STATE
UNIVERSITY



A large, abstract graphic on the left side of the page consists of several overlapping squares and rectangles in shades of orange, yellow, light blue, and teal. These shapes are arranged in a way that suggests depth and perspective, with some appearing to float in front of others against a white background.

PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

PROCEEDINGS
OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE



A smaller, abstract graphic at the bottom right corner of the page features several overlapping diamonds in orange, yellow, and light blue. These shapes are arranged in a dynamic, overlapping pattern that suggests movement or interconnectedness.

GULISTAN CITY, MAY 10-11, 2023

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

GULISTAN STATE UNIVERSITY

PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE

**PERSPECTIVES OF PHILOLOGY
AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF
TEACHING FOREIGN LANGUAGES**

GULISTAN CITY, MAY 10-11, 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗİRLİĞİ

GULISTON DAVLAT UNIVERSİTETİ

**FILOLOGIYA ISTIQBOLLARI
VA CHET TILLAR O'QITISHNING
AMALIY IMKONIYATLARI**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERİALLARI

10-11 MAY 2023 YIL, GULISTON SHAHRI

UO'K: 80+372.881.1
BBK: 80+74.261.7
F51

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyatga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. Konferentsiyani o‘tkazish uchun asosi – O‘zbekiston Respublika Prezidentining 19 may 2021 yildagi 5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida **2023 yil 10-11 mayda** Guliston davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasini tomonidan **“Filologiya istiqbollari va chet tillar o‘qitishning amaliy imkoniyatlari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi o‘tkazilagn. Konferentsiya zamona viy filologiya fanining eng dolzarb ilmiy mavzularini va uslubiy ishlamalarini aks ettirishga qaratilgan.

ISBN: 978-9943-16-426-0

Mas’ul muharrirlar:

fil.f.d., prof. F.G. Sharipov, fil.f.n., dotsent X. Tojiyev
PhD A. Pazilov, R.Sh. Axmedov

Tahrir hay’ati a’zolari:

fil.f.n., dotsent M.M. Bayeshanov, PhD D.T. Normamatova,
PhD Sh. Abdurazakova, PhD N. Abdukadirova, PhD N. Ayaqulov,
PhD Sh.R. Hakimova, PhD D.Sh. Shavkieva, katta o‘qituvchi S.M. Xatamova



To‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riliqi hamda fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zları mas’uldirlar.

MUNDARIJA**I. UMUMFILOLOGIK TADQIQOTLAR: TALQIN VA TAHLIL MASALALARI**

A. Lessard	2	Publishing a Paper for a Scientific Journal
Ch. Rachimov	6	Über grundlegende Begriffe der Textsortenstilistik
I.A. Juraeva	9	Language as a Means of Storing Cultural and Historical Information
N.S. Nasrulloeva	12	Jargonization of Computer and Internet Terms
Ш. Имямшина	15	Немис тили фразеологияси ва уни ўрганишнинг ахамияти
С.А. Рузиева	18	Сравнительный анализ концепта «семья» в английской и узбекской паремиологии
Sh.M. Yunusova	21	O'zbek reklama matnlarining sintaktik qurilishi
S. Ergasheva	24	Ingliz tilida somatic frazeologik birlklari
B.K. Reymov		
D.T. Normamatova	26	Lexical Features of Interrogative Pronouns in English and Uzbek Languages
M. Алламбергенова	29	Антропонимическая картина мира древних тюрков и их трансляция
Ш. Абдуразакова	32	Парадигматические связи фразеологических единиц на уровне семантических классов
А.А. Axrorov	34	“Maqol” so'zi bo'yicha ba'zi mulohazalar
D.A. Turdimetova		
И.Т. Хайдаров	37	Сугурта терминларининг синтактик муносабатлари
M.A. Ubaydullayeva	39	Turkiy terminologiyaning dolzarb muammolari
N.N. Aliyeva	41	Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizm so'zlarining xususiyatlari
G.B. Bahodirova	44	Kashtachilik leksikasi lug'atini tuzish mezonlari
L. Dexkanova	47	Forscha ot yasovchi qo'shimchalarining o'zbek tilida qo'llanishi
Z.M. Tuxtasinova	50	O'zbek va ingliz tillarida kasb nomlarining haqorat sifatida ishlatalishi
Б.Б. Собирова	52	Сопоставительное исследование цветолексики в русском и узбекском языках
Б.Р. Султанов	55	Риторика как ценность
Sh.V. Xudoyqulova	59	Qo'shma so'zlarining vujudga kelishi haqida
X. Minavarov	61	Study of Court Terms in Uzbek Linguistics
Z.A. Raxmonova	64	Ingliz tilida “happiness” va “unhappiness” konseptlarini ifodalovchi metaforalar semantikasi
Ш.А. Комолова	67	Ўзбек ва немис тилларидаги зооним компонентли паремияларнинг гендер хусусиятлари
Н.Х. Юнусов	70	Лугавий, матний ва мантикий маънолар муносабатига асосланган фразеологик бирликлар тавсифи

Sh.S. Ruzimov	72	A. Saidov, D. Yax'yoyeva, D.I. Volkoviskaya, A. Peremqulova, M.X. Hakimovlarning uch tilli terminologik lug'atlarining yutuqlari
D.M. Yo'ldasheva	75	Fransuz tilidagi dorivor o'simliklarning nomlanish tahlili
Л.М. Казакова	77	Харбий терминларнинг изоҳли лугатларда бош сўз сифатида ифодаланиши
M.M. Dautova	80	Moda sohasidagi inglizcha neologizmlar taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalari misollarda
Z.M. Kuvonov	82	Nemis tiliga ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning structural-semantic tadqiqi
F.S. Nasimova	84	O'zbek tili fonetikasi va fonostistikasining o'ziga xosliklari
E.O. Ro'ziyev	89	Qadimgi Turkiy bitiklarda siyosiy nutq ifodasi
M.S. Shavqiyeva	91	Gazeta matnlaridagi ingliz va o'zbek tili sintaktik birliklarning lingvistik tahlili
M.Q. Shodmonova	92	Terminology as Branch of Lexicology
D.A. Sultanova	95	Ingliz va o'zbek tillarida tipologik modallik kategoriyasi
M.A. Togaeva	97	Idioms and Their Role in Communication
S. Abdumanopova		
B. Turdikulova	99	Ingliz tilida geologic atamalarning yasalishi
B.T. Ummatov	102	Umumfilologik tadqiqotlar: talqin va tahlil masalalari
M.A. Ubaydullayeva		
M.E. Gulomova		
M.B. Umatova	105	Phraseology: Classification Concepts
A.H. Jumabaev		
G.A. Xudoyberdiyeva	108	"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli terminlarning berilishi masalasi
А.Ў. Абдуллаев	110	Рамз белгининг маҳсус тури сифатида
М.Қ. Абдуллаева	113	Модалликни ифодаловчи грамматик воситалар
Ж.Э. Рӯзиева		
Ж.Т. Абдураззоков	116	Фразеология тушунчаси кўлами, предмети, объекти ва вазифаси хусусида
З.А. Каримова	118	Современная фразеология английского языка
Д.Б. Нарзуллаева	121	История теолингвистических исследований
S.M. Mamaraximov	124	Fe'lning grammatik shakllarini o'qitishda morfologik tahlilning ahamiyati
X.O. Mirzayeva	126	Nemis va o'zbek maqollarining mavzu jihatdan bir-biriga o'xshash tamonlari
Z.M. Narbutaeva	128	The Modes and Differences of Male and Female Rhetoric in Discourse
N.Sh. Shermamatova	131	Publisistik matnda so'roq gaplarning ekspressivlikni ta'minlovchi omil sifatida kelishi
S. Sog'lomov	133	Basic Mechanisms, Graphic and Spelling Features of Abbreviations
Yu.U. Farkodova	136	Some Main Features and Similarities of Word Formation in English and Uzbek Languages

gapiruvchilarga qaraganda kamroq. Ularning fikrini til egalarining ma'lum bir qismigina qo'llab quvvatlashi mumkin, qolganlari esa puristlarning fikrini har doim oqlayverishmaydi. Shu jihatdan ham puristlar o'zlashmalarga qarshi to'liq kurasha olmaydi. Masalan ingliz tilidan o'zlashgan so'z "**Computer**" so'zi o'rniiga "**Rechner**" so'zini taklif etishgan. Lekin bu so'zning ishlatalish holatlari kam uchramoqda. Uning o'mniga hamma bilgan Computer so'zi ishlatalmoqda. Bundan tashqari puristlar quyidagi so'zlarga mos variantlarini ko'rsatishgan. Masalan: **Rundfunk-Radio, Fernsprecher- Telefon, Drahtbericht-Telegramm** kabi. Keyinchalik bular ham o'zini oqlamagan.

Xulosa qilib aytganda, o'zlashmalar tilning lug'at tarkibining boyib borishida muhim rol o'yinaydigan jarayon. Nemis tiliga ham so'zlarining o'zlashishini yuqoridagi tarixiy jarayonlar orqali kuzatib chiqdik. Nemis tili so'z boyligining oshishida eng muhim rol o'ynagan tillar dastavval, lotin tili, keyinchalik fransuz tili, hozirgi paytda esa ingliz tilidir. Shu sababdan bu tillardan o'zlashmalarning soni anchayin ko'p.

Iqtiboslar:

1. Bußmann H. Lexikon der Sprachwissenschaft. Stuttgart, Alfred Kröner Verlag, 2002.
2. Bondzio W. Alle Wörter mit neuem Inhalt. Wissen und Leben. Berlin, 1984.
3. Zaripova Z. IMAGES IN ANECDOTAS AS LANGUAGE PHENOMENA //Journal of Central Asian Social Studies. – 2021. – T. 2. – № 04. – С. 44-47.
4. Ширназарова, З. А., & Усманходжаева, М. А. (2020). О семантико-ономазиологическом анализе человеческой внешности в немецком и узбекском языках. *Молодой учёный*, (23), 709-710.
5. Kuvonov, Z. (2022). NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNING ORGANILISHI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 381-389.
6. Razakova, Shahnoza (2021). Problems which occur in translating and theirs solutions. Research and Development, (6)
7. Kuvonov, Z. (2021). Nemis tili lug'ati tarkibidagi o'zlashmalarning lingvistik va ekstralingvistik mohiyati. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(4), 31-38.
8. Dilobar Sherali Qizi Abduxalilova ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MADANIYATLARARO MULOQOT TAHLILI // CARJIS. 2022. №3.

O'ZBEK TILI FONETIKASI VA FONOSTILISTIKASINING O'ZIGA XOSLIKHLARI

Nasimova Fotima Sodiq qizi

*Korijiy tillar fakulteti Fransuz filologiyasi kafedrasи o'qituvchisi
Buxoro davlat Universiteti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tili fonetikasi va fonostistikasini haqida so'z yuritilib, uning o'ziga xosliklari misollar yordamida ochib beriladi. O'zbek tili fonetikasi va fonostistikasini o'rganishga bag'ishlangan mavjud ilmiy qarashlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: unli va undosh tovush, fonostistik vositalar, paronim, fonologik oppozitsiya, fonetik uslubiyat, fonologiya, fonema, fonologiya, kuy, tovush almashinushi, fonetik qonuniyatlar.

Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni o'rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan, ayniqsa, leksika va grammatika bilan bog'lanishi ma'lum bo'lib, fonetika tovushlarning almashinishi va o'zgarishi, adabiy talaffuz me'yorlari, to'g'ri talaffuz qilish qoidalari, bo'g'in va urg'u, uning turlari kabi muammolarni ham o'rganadi. Bir so'z bilan aytganda, fonetika haqida zaruriy ma'lumotga ega bo'lmay turib, to'g'ri talaffuz qilish bilan aloqador bo'lgan orfografiya va grammatika (morphologiya va sintaksis)

qidalari ustida ham muvaffaqiyatlilish olib borish mumkin emas. Shunga ko'ra, fonetika nazariy planda umumiy fonetika va xususiy fonetikaga, amaliy planda esa tarixiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifyi fonetika, eksperimental fonetika kabi bir necha sohaga bo'lindi.

"Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o'rganuvchi bo'lim. U turli sistemalar tillarida inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanan imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. U alohida va qarindosh tillarning fonetik sistemasini batatsil va chuqr o'rganish hamda natijalarni umumlashtirish asosida hosil qilinadi.

Xususiy fonetika muayyan bir tilning fonetik bazasini, fonetik qonuniyatlarini umumiy fonetika qonuniyatlariga bo'yusunadi va uning qonuniyatlarini asosida faoliyat olib boradi. Xususiy fonetika muayyan bir tilning amaliy fonetikasi hisoblanadi. U turli farazlar, gipotezalar, postulatlardan xoli bo'ladi. Muayyan tilning artikulyatsion bazasi, uning artikulyatsion imkoniyati, akustik refrezentatsion usuli asosida ish ko'radi. Mazkur tilning fonetik ifoda basasi bilan bog'liq barcha jarayonlar xususiy fonetikada o'rganiladi.

Tarixiy fonetika ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so'zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo'ladi.

Qiyosiy fonetika qarindosh tillarning tovush sistemasini munosabatlarini o'rganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi. Bunda bir qancha qarindosh tillarning yoki bir qancha dialekt va shevalarning materiallari – unli va undoshlar, fonetik o'zgarishlar va shu kabilalar bir-biriga qiyoslash asosida o'rganiladi. Masalan, singarmonzim qonuni hozirgi o'zbek adapbiy tilida buzilgan, lekin boshqa turkiy tillarda, shuningdek, ayrim o'zbek dialektlari to'la saqlangan.

Tavsifyi fonetika yoki fonologiya ma'lum bir til taraqqiyotining ma'lum bir davri oralig'idagi tovush sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tavsifyi fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug'ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o'tmaydi.

Eksperimental fonetika nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o'rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi" [Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. 2016. 5 b.]

Bilamizki, har bir til o'z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo'lishi va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog'liq masalalarini o'rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg'u va bo'g'in xususiyatlarini tekshiradi, o'zbek tili ham bundan mustasno emas. Masalan, o'zbek tilida hozir v fonemasining ikkita – lab-lab, lab-tish varianti bor. Tarixiy fonetika v fonemasidagi shu belgilarning kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlaydi: lab-lab varianti (v) o'zbek tili uchun birlamchi va qadimiy fonema hisoblanadi. Sof o'zbekcha va asl turkcha so'zlarda bu tovushning lab-lab varianti ishlataladi. Masalan, ov, suv, yayov, qovun, haydov, yaylov kabi. O'zbek tilining keyingi paytda boshqa tillar bilan munosabati kuchayishi natijasida bu fonemaning lab-tish varianti yuzaga keladi. Bu variant boshqa tillardan, xususan, arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan va'da, vido, vint, vagon, vaqt, viloyat kabi so'zlarda uchraydi. Shuningdek, "fonetika bahsining bunday tarmoqlanishi nutq tovushlarini hozirgi o'zbek tili me'yorlari nuqtai nazaridan tasvirlash, tarixiy ekskursiya niyatida ayrim nutq tovushlarining taraqqiyot protsessiga ham nazar tashlash, adapbiy talaffuzning shakllanishi va takomilini ko'rsatish maqsadida adapbiy til fonemalarini o'mi bilan markaziy yetakchi shevalarning nutq tovushlariga

yo'l-yo'lakay qiyoslab o'tishni taqozo etadi. Shu o'rinda nutqimizni bo'laklarga ajratadigan bo'lsak, uning oxirgi bo'linish nuqtasi tovushlar bo'ladi" [Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. 2016. 7 b.]. Masalan, O'zbekiston – jannatmakon o'lka jumlesi O'zbekiston, jannatmakon, o'lka so'zlariga, bu so'zlar o'z navbatida O'z-be-kis-ton, jan-nat-ma-kon, o'l-ka bo'g'inlariga, bo'g'inlar esa O'-z-b-e-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n o'-l-k-a singari tovushlarga bo'linadi. Bo'linishning oxirgi nuqtasi bo'lgan, boshqa mayda bo'laklarga bo'lish mumkin bo'limgan nutq bo'lagi (akustik-artikulatsion birlilik) tovush hisoblanadi va u bilan bog'liq hodisalar tilshunoslikning fonetika bo'limida o'rganiladi. Fonetika so'zi yunoncha "phone" "tovush" so'zidan olingan.

Bilamizki, yozuv tarixi bilan shug'ullanuvchi, deyarli, barcha tilshunoslar ilk fonografik yozuvda har bir harf muayyan bir fonemani ifoda etganligini e'tirof etishgan. Dastlab eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikdayoq qadimgi finikiylar 22 ta undosh va bir unli uchun harf belgilagan ekan, keyinchalik nabotiylar o'zlarining tillariga moslab yana oltita harf qo'shib, harflar sonini 28 taga yetkazganligi haqida ma'lumot berishgan. Bu shuni ko'rsatadiki, eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikdayoq amaliy ehtiyoj bilan Sharqda, Arabiston yarim orolida, Falastin va Finikiya mamlakatlarida tilshunoslik, uning fonetika va fonologiya qismi rivojlangan. Bu an'ana qadimgi Hindistonda ham, Markaziy Osiyoda ham, Gretsya va Rumo o'lkalarida ham davom etgan. Jumladan, qadimgi hindlar tovushlar tipini ifodalovchi shpota atamasini ham ishlatishtgan [Березин Ф.М. 1975. С.6]. Arab tilshunosligining paydo bo'lishi va rivojlanishi Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom va Qur'on Karim nozil bo'lishi bilan bog'liq. Xususan, "Qur'on Karim nozil bo'lgandan keyin Payg'ambarimiz umi qorilarga yodlatib, boshqalarga yetkazishni buyurganlar, og'izdan og'izga o'tgan Qur'on oyatlarining talaffuzini o'zgarganini sezgan Payg'ambarimiz tilshunoslami (til mutaxassislarini) chaqirib Qur'on Karimning o'zgarmas yozma shaklini yaratishga fatvo berdilar va qat'iy to'g'ri talaffuz qilish qoidasini yaratishni buyurdilar. Payg'ambarimiz bu bilan arab tilshunosligining vujudga kelishiga, to'g'ri yozish (orfografiya), to'g'ri talaffuz qilish (orfoepiya), so'z ma'nosini to'g'ri anglash va yetkazish (semantika) asos soldilar". Arab tilshunosligida fonetika sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar turkiy tilshunoslikka ham o'tdi. Chunki O'rta Osyo arablar toromonidan ishg'ol qilingandan so'ng arab tili fan tili sifatida e'tirof etildi. Garchi arab tilining fonetik sistemasi turkiy tillarning fonetik sistemasiga mos tushmasa-da, barcha ilmiy va badiiy asarlar arab tilida yaratildi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tillarning o'ziga xos fonetik tizimi, arab grafik sistemasidagi ko'p belgilarning turkiy til fonetik birliklariga muvofiq kelmasligi haqida fikr yuritiladi [Махмуд Кошғарий. 1963. 499 б.].

Ta'kidlash joizki, har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas. Osyo Markazida azaldan yashab kelgan o'g'uz, qichoq, uyg'ur, nayman, uyshin, barlos, yuz qirq, ming kabi ko'plab qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida muhim o'rin tutgan. O'pkadan chiqayotgan havo og'iz boshlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydigan tovushlarga unli tovushlar deyiladi.

O'zbek tilida oltita unli tovush bor: I, U, O', E, O, A unli tovushlardir.

Unli fonemalar undosh fonemalardan quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi:

a) fizik-akustik yordam: unlilar ovozdan tarkib topadi, unda shovqin qatnashmaydi. Undosh tovushlarga esa shovqinning bo'lishi shart;

b) anatomik-fiziologik kasalliklar: unli tovushlar talaffuzida nutq a'zolari to'siq (fokus) hosil qilmaydi, bu hol o'pkadan xavf omillarining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay o'tishini ta'minlash. Undoshlar artikulyatsiyasida esa, albatta, to ya'ni fokus hosil, havo o'rnatish shu to'siqdan portlab, sirg'alib, yoki titrab o'tadi, bu jarayon undosh tovushlar uchun kerak bo'lgan harakatni yaratish.

Yuqorida keltirilgan fikrlarda ta'kidlaganimizdek, fonetika keng ma'noda nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolarining tuzilishini, fonetik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini va tovush o'zgarishi hodisalarini o'rganadi. Fonetik birliklarga nutq tovushlari, bo'g'in, fonetik so'z, takt, fraza, urg'u, ohang kabilar kiradi.

Fonema – tildagi ma'nodor birliklar bo'l mish so'z va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, o'zi mustaqil ma'noga ega bo'l imagan (bir planli) birligidir. Masalan, qol, qul, qo'l; tor, tog', tok, tol; boy, bor, bog' so'zlarida o, u, o', r, g', k, l; y, r, g' fonemalariga ko'ra ma'nano farqlangan.

Birinchi bilih vositalarini mashhur ruhshunos P.Pavlov birinchi signal sistemasi, ikkinchisini esa ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan. Hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini ta'kidlagan.

Shveysariyalik mashhur tilshunos olimi Ferdinand de Sossyur tomonidan nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqishi bildirilgan. Ferdinand de Sossyurning tilshunoslikda til va nutq tushunchalari farqlanadi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi, deb bildirgan fikrini biz ham tasdiqlaymiz.

Yuqorida sanab o'tgan belgilarga ko'ra fonemalar ikki katta guruhga bo'linadi:

- 1) unli fonemalar;
- 2) undosh fonemalar.

Unli fonemalar talaffuz qilinayotganda, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi hech qanday to'siqli uchramaydi.

Faqat un (ovoz)dan iborat bo'lgan va bo'g'in hosil qiladigan fonemalarga unli fonemalar deyiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli fonema mavjud: i, u, e, o', o, a. Va yana i, u, e, o', o, a unilari qilib ko'rishingiz mumkin. Ularning bir guruhini (u, o', o) unli talaffuz qilganingizda lab oldinga qarab cho'chchayadi, a, e, i unli tovushlarini talaffuz qilganingizda esa lab o'z holicha qoladi. Demak, unlilarning bir guruhida lab ishtirok etadi, boshqalarida esa qatnashmaydi. Bundan tashqari, a unlisini talaffuz etganingizda og'iz katta ochiladi. Til gorizontal holda pastki jag' ustida yotadi.

i, u unilari talaffuz etganingizda esa, og'iz ozgina ochiladi, tilning o'rtasi esa yuqori tanglayga qarab ko'tariladi. Yuqorida sanab o'tilgan ikki belgi:

a. labning ishtiroki;

b. og'izning ochilish darajasi (tilning ko'tarilishi darajasi) hozirgi o'zbek adabiy tili unlilari tasnifi uchun asos bo'ladi. Bunga ko'ra unlilar dastlab ikkiga bo'linadi:

- 1) lablangan unlilar (o', o, u);
- 2) lablanmagan unlilar (e, a, i).

Og'izning ochilish darajasi belgisiga ko'ra esa uch darajaga bo'linadi:

a) tor unlilar (til o'rtasining tanglayga tomon yuqori ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi, shuning uchun yuqori ko'tarilish yoki yuqori tor ham deyiladi): u, i;

b) o'rtta tor yoki o'rta keng unlilar: e, o'

d) keng unlilar (quyi ko'tarilish yoki quyi tor): a, o.

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi. Buning oqibatida esa undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Ba'zi hollarda unga jarang ham qo'shiladi.

Masalan, "b" undoshining talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo lablar to'sig'iga uchraydi. "P" undoshining hosil bo'lishida ham shunday holat bor, lekin uning "b" dan farqi talaffuzida

jarang ishtirok qilmaydi. O'zbek tilida undosh tovushlar 23 ta: b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng.

Bu undosh tovushlardan bittasi *ng* yozuvda maxsus belgilar bilan berilmaydi.

Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi:

I. Hosil bo'lish o'miga ko'ra:

1. Lab undoshlari :

- a) lab-lab undoshlari: b, p, m;
- b) lab-tish undoshlari: f, v.

2. Til undoshlari:

- a) til oldi undoshlari: d, t, z, s, sh, j, ch, n, l, r;
- b) til o'rta undoshi: y;
- d) til orqa undoshlari: g, k, ng;
- e) chuqur til orqa undoshlari: q, g', x.

3. Bo'g'iz undoshi: h.

II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

- a) portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;
- b) sirg'aluvchilar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g', x, h
- c) qorishiqlar: ch.

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

1. Jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, y, g', l, m, n, ng, r.
2. Jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.

Shuningdek, ular tarkibiga ko'ra sof va qorishiq, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra sonorlar va shovqinlilar deb ham tasniflanadi. Qorishiq undoshlar bitta: ch. Sonorlar esa beshta: l, m, n, ng, r. Bularning ichidan l yon tovush, r titroq tovush sanaladi.

Biz nutqimizni yozma ravishda ham bayon qilamiz. Bunda yozma nutq harflar ketma-ketligidan tashkil topadi.

A.Haydarovning "Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi" [Haydarov A. 2009.] mavzusidagi dissertatsiyasida ham nutqda konnotativ ma'nolar ifodalanishida fonetik, ya'ni segment va supersegment vositalarning ishtiroki tadqiq etilgan. Unli va undosh tovushlar hamda tovushlar o'zgarishi misolida segment vositalar, intonatsiya, pauza, bo'g'inlar talaffuzi va urg'u misolida supersegment vositalar vujudga keftiradigan konnotativ ma'nolarning yuzaga kelish qonuniyatlari ochib berilgan. Fonetik vositalar ifodalagan konnotativ ma'nolar til jozibadorligi va bo'yoqdorligiga xizmat qilishi, bu ma'no ottenkalarining supersegment elementlarda kuchli ekanligi hamda ana shu ma'nolarning ro'yobga chiqishida nutq tovushlarining paradigmatisk va sintagmatik aloqasi muhim rol o'yynashi haqida muhim xulosalarga kelingan.

Xulosa qilib aytganda, inson doimo o'zini qurshab turgan olamni bilishga intiladi. Kishilarning barcha faoliyati markaziy asab sistemasi yordamida boshqariladi. Olamni bilish jarayoni markaziy asab sistemasiga turli sezgi a'zolarimiz (tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari) yordamida uzatilgan axborot orqali amalga oshiriladi. Tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari orqali olamni bilish vositasi barcha jonzotlarga xos xususiyatdir.

Inson nutqi makon va zamonda ketma-ket paydo bo'ladigan kichik va katta birlikkaldan tashkil topadi. Tilda uch asosiy qatlarni – fonetika, leksika, grammatika farqlanib, ular o'z oldiga qo'ygan vazifasiga ko'ra nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi. Nutqning eng kichik bo'linmas birligi tovush bo'lib, tildagi so'zlar, iboralar va umuman nutq tovushlar orqali shakllanadi. Nutq tovushlari nutqning bu birlikkalari uchun ifoda materiali bo'lib xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- Абдурахмонов Ф. А. Ўзбек тили грамматикаси. – Т., 1996. – Б. 246.
- Березин Ф.М. История лингвистических учений. М.: Высш.шк., 1975. -С.6.
- Волосухина Н.В. К вопросу о трактовке понятий "концепт" и "фрейм" в современной лингвистике. Волгоград, 2000. – С. 18 – 20.
- Махмуд Кошгари. Девону луготит турк. I том, Тошкент: Ўздавнашр, 1963. -Б. 499.
- Нурмонов А.Н. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Фан, 1990. –Б.10.; Махмудов А. Ўзбек тили узиллари. Тошкент: Фан, 1995.
- Ш. Балти. Французская стилистика. Либреком, 2009.
- Bobokalonov, O. (2022). ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ФРАНЦУЗСКО-УЗБЕКСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ.
- Haydarov A. 2009.
- Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. Ozbek tili fonetikasi o'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon, 2016. -B.5-7.
- Narzoullaeva Dilfouza Bafoevna. (2023). THÉOLINGUISTIQUE - UNE TENTATIVE DE VULGARISATION DU TERME. Innovative development in educational activities, 2(6), 58–63.
- Nasimova F.S. Fransuz va o'zbek tillarida fonostilistik vositalarning leksik-semantik tahlili.

QADIMGI TURKIY BITIKLARDA SIYOSIY NUTQ IFODASI

Ro'ziyev Elbek O'rol o'g'li

Termiz davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Turkiy tillar tarixida siyosiy nutqning yuzaga kelishi va takomili masalasi tilshunoslikda muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolada qadimgi turkiy yozma yodgorliklar matnida uchragan siyosiy nutqqa oid bo'lgan matnlarning til xususiyatlari haqida muhohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: bitik, Bilga xoqon so'zi, turkiy xalqlar, O'rxun-Yenisey yodgorliklari.

Qadim Sharq xalqlarida notiqlik yuqori darajada rivojlangan, alohida maktab sifatida shakllanmagan bo'sada, uning ildizlari mingyilliklarga tushgan. Qadimgi xunlarda, shuningdek Turk xoqonligi davridagi yozma manbalarda, chunonchi Kultegin. Bilga xoqon bitiklarda qadimgi sharq siyosiy notiqligiga oid bo'lgan matnlarni uchratishimiz mumkin

Qayd etilishicha, turkiy xoqonlar o'z unvonlarida **sabim** so'zini qo'llaganlar. Bu atama unvonning xoqonga tegishli ekanligini anglatib, "mcning so'zim; mcning farmonim" degan ma'noni beradi. Eng qadimgi hujatchilikdag'i bu an'anadan VI–VIII asrlarda yashab o'tgan turk xoqonlari ham o'z yorliqlarida foydalanganlar. Yorliqlar boshlamasidagi unvonlar davr o'tishi bilan uslubiy jihatdan o'garishga yuz tutgan: unvonlar tarkibida ishlataligan **sabim** o'mida o'rta asrlarga kelib **söziüm** ishlatalila boshladi [Omonov, 2016; 12].

Quyida bitiklar matnining siyosiy nutq shakkllari ifodalangan qismlarini keltirish orqali siyosiy matnlar xususiyatlari haqida muhohazalarimizni davom ettirsak. Dastlabki bitik "To'nyuquq"bitigidir. Ushbu bitik o'zining turkiy so'zlarning ifodasi bilan turkologiyada muhim o'rninga egaadir.

Ol sabiğ äsidip tun udisiqim kälmädi, küntüz olursiqim kälmädi. Anta ötrü qağanıma ötünäm, ança ötünäm: Tabgač, oğuz, qitaň, bu üçägү qabasar, qaltači-biz, öz içi taşın tutmiş-tägbiz. Yuyqa ärklig üzgäli učuz, yuyqa qalın bolsar, topulğuloq alp ärmis, yinçä yoğan bolsar, üzgülük alp ärmis. Önrä Qitaňda, biriýä Tabgačda, quriya Qurtadanta, yiraya Oğuzda äki üç bin sümítiz, kältäči-miz bar-mu, nä? ança ötünäm. [M.Ishoqov va boshq. 2009;]. Ushbu xabarning bugungi kundagi tarjimasi quyidagicha hisoblanadi. "O'sha xabarni eshitib, tun uyqum kelmedi, kunduz o'lirigm kelmedi. Shundan keyin xoqonimga otindim. Shunday otindim: "Tabg'ach, o'guz, qitan – bu uchovi qamal qilsa, (qurshovda) qolajakmiz (xuddi) vujudning ichi tashini